

FAN VA TADQIQOT SAMARALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

www.academicsbook.com

Vol: 1 Issue: 3 (2024)

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARING TA'LIM-TARBIYASI VA RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY MUHITNING AHAMIYATI

Mitanboyeva Feruzabonu Sherzod qizi
Samarqand davlat chet tillari instituti
talabasi
mitanboyevaferuzabonu@gmail.com

Ilmiy rahbar: Najiyeva Sojida

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lismoshidagi bolalar uchun ijtimoiy muhitning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Ijtimoiy muhit, bolalarning psixologik va emotsiyal rivojlanishi, shuningdek, ularning muloqotchanligini ko'nikmalarini shakllantirishda juda muhim rol o'yaydi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lismoshidi, ijtimoiy muhit, tarbiya, rivojlanish, emotsiyal barqarorlik.

KIRISH

Har bir inson tug'ilganidan to o'limiga qadar ilm va ma'rifat yo'lida safar qiladi va o'z o'rnini topadi. Shunday ekan, har birimiz avvalo oiladan bu safarni boshlashimiz zarur. Hozirda hamma o'qish va yozishni biladi, ammo o'rta asrlarda ba'zi insonlar savodsiz bo'lsa ham tarbiyali avlodni ulg'aytirganlar. Demak, muhit inson hayotida juda katta o'rin egallaydi. Shu sababli, hozirgi kunda bolalar yaxshi muhitda o'sishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda va maktabgacha ta'lismoshidagi shulardan biridir.

Maktabgacha ta'lismoshidi — bu bolalarning shaxs sifatida shakllanishi uchun birinchi va eng muhim bosqichdir. Ushbu davrda bolalar o'z atrofidagi ijtimoiy muhitdan faol ravishda ta'sirlanadilar va o'rganadilar. Ijtimoiy omillar, jumladan, oilaviy muhit, tengdoshlar bilan muloqot va jamiyat madaniyati bolalarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bog'cha yoshidagi bolalarning yaxshi o'sishi va tarbiyalanishi uchun muhitning ham bir necha turlari mavjud:

1. Oilaviy muhit: Oila — bolalar uchun dastlabki o'qituvchi va tarbiyachidir. Oiladagi munosabatlari, ota-onaning pedagogik yondashuvi bolalarning hissiy holati va qarama-qarshi muloqotga tayyorligini belgilaydi. Xalqimizda shunday gap bor "Qush uyasida ko'rganini qiladi". Bundan ma'lumki, bizni kelajakda kim bo'lishimiz va qanday xarakterda bo'lishimiz ham oilamizdagi muhitga bog'liq. Ba'zi odamlar bizni yuzimizga qarab qanday muhitda o'sganimizni bilib olishadi va nafaqat bizni, balki ota onamizni kimligini ham bilib olishlari mumkin bo'ladi.

2. Tengdoshlar bilan muloqot: Tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlari bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayon orqali bolalar jamoada ishlashni, fikr almashishni va kelishuvni o'rganadilar. Shuning uchun bolalar ko'proq o'z

FAN VA TADQIQOT SAMARALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

www.academicsbook.com

Vol: 1 Issue: 3 (2024)

tengdoshlari bilan vaqt o'tkazishlari kerak. Agar bolalar o'zlaridan kichkina bolalar bilan o'ynasa, ularning fikrlashi ham kichkina bolalarnikiga o'xshab qolishi mumkin. Bundan ko'rinish turibdiki, hatto o'yinlardga ham bog'liq.

3. Ta'lif muassasalari: Maktabgacha ta'lif muassasalari (bolalar bog'chalar) bolalarning rivojlanishiga katta hissa qo'shamdi. Bu joylarda bolalarga yangi bilimlar berilib, turli xil faoliyat turlari orqali ijodkorlik, mantiqiy fikrlash kabi ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari. Maktabgacha ta'lif muassasalarida maxsus bilim yurtini bitirgan tarbiyalovchilar o'z faoliyatini olib borishadi. Shu qatori xususiy bog'chalar soni ham kundan kun ko'payib bormoqda.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoit: Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti ham ularga jiddiy ta'sir qiladi. Moliyaviy imkoniyatlar, sog'liqni saqlash xizmatlariga kirish imkoniyatlari va boshqa omillar bola hayotining sifatini pasaytirishi mumkin. Bundan tashqari, ba'zi nodavlat tashkilotlarda bolalarning kiyimini ham turlicha bo'lishini talab qilishar ekan. Sharoit hammada ham birdek bo'lmasi mumkin, ammo bu bolalarning aybi emas, ota-onalar farzandli bo'lishidan avval bola zaruratini qoplay oladigan darajaga yetishishi lozim.

5. Madaniyat va an'analar: Mahallaning madaniyati, an'analarini va urf-odatlari bolalarning dunyoqarashini shakllantiradi. Ular bu jarayonda milliy qadriyatlarni o'zlashtirib, o'zligini anglash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ularni milliy bayram va sayillarga olib chiqish kerak. Faqat jim o'tirishi uchun uni telefon yoki televizor bilan chalg'itish yaxshi ish emas.

Ijtimoiy muhitning ta'siri:

- Emotsional rivojlanish: Ijtimoiy muhitingizdagi iliqlik va xavfsizlik hissi bolaning emotsional barqarorligini oshiradi.
- Kognitiv rivojlanish: Ijtimoiy faoliyatlarda ishtirok etish bolaning fikrlash qobiliyatini kengaytiradi.
- Tarbiya: Ijtimoiy normalarni qabul qilish orqali bola ma'naviyatini shakllantiradi.

XULOSA

Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarning rivojlanishi uchun ijtimoiy muhit juda ahamiyatlidir. Oila, tengdoshlar va keng jamiyat bilan bo'lgan munosabatlarni shaxsining to'laqonli shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun pedagogik jarayonlarda ijtimoiy omillarni inobatga olish zarurdir. Tarbiya inson hayotining poydevori hisoblanadi. Shu sababli, ijtimoiy muhitni yaxshilashga qaratilgan ishlari va tarbiyaviy jarayonlar dolzarb ahamiyatga ega. Bu jarayonda ota-onalar, pedagoglar va jamoatchilikning hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki barchamiz birgalikda bolalarni yanada muvaffaqiyatliroq qilib tarbiyalashimiz mumkin.

FAN VA TADQIQOT SAMARALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

www.academicsbook.com

Vol: 1 Issue: 3 (2024)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akhmedova, R., & Mardonova, M. (2019). Features and requirements for role-playing games in foreign language lessons. In Student science: research works (pp. 55-56).
2. Gafurova D., "Ijtimoiy tarbiya", Toshkent: Sharq nashrlari.
3. Karimova N., "Ta'lif tizimida innovatsion yondashuvlar", Samarkand: SamDU nashri.
4. M Ubaydullaeva, Ö Semerkant, TÜrk halklarinin edebiyat arastirmalarinin gelisim tarihi.
5. M Ubaydullayeva, O'zbek va qirg'iz adabiyotshunoslik terminlarining mavzuiy guruhlari tahlili, ilmiy axborotnoma, 18, 0.
6. Najiyeva S, "Talabalar ijodiy faoliyati va mahoratini shakllantirishning pedagogik ahamiyati.
7. Rasulov B., "Oila – tarbiyaning asosidir", Tashkent: Ma'naviyat nuri.
8. Shonazarov S., "Maktabgacha ta'lif tizimining assoslari", Toshkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti nashri.
9. Худойназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятига Инновацион Технологияларни Жорий Этиш. International scientific journal of Biruni, 3(2), 178-186.
10. Валиева, Н. (2023). Туркистанда Бошқарув Тизими Адабиётлар Таҳлилида. Talqin va tadqiqotlar, 1(19).
11. Mirzabaevich, B. A. (2024). Juldízlardíń Kelip Shíǵíwí Haqqíndaǵı Etiologiyalıq Ápsanalar. Өзбекстан Республикасы Илимлер Академиясы Қарақалпақстан бөлиминин ҲАБАРШЫСЫ, 1(3), 107-110.
12. Mardonova, R. O., & Raimova, Z. A. (2018). Fairy Tales In Teaching English As A Foreign Language. Гуманитарный трактат, (30), 10-11.
13. Botirovna, M. A. (2024). Exploring the Distinctive Features of Learning Management Systems in Enhancing Academic Writing in Higher Education. Ustozlar uchun, 57(4), 546-549.
14. Musoyeva, A. B. (2021). The importance of competencies in improving the professional skills of future foreign language teachers. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 89-95.
15. Mardonova, R. O. (2022). Boshlang'ich Sinflarda Ingliz Tili Talaffuziga O'rnatishdagi Qiyinchiliklar. Ta'lif Va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali, 2(1), 46-48.